NAVOIY DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING

BUYRUG‘I

17 may 2025 yil. **190/AFO-son**

Universitetda professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 517-son qarori, Navoiy davlat universiteti Kuzatuv kengashining 2025-yil 18-yanvardagi yig‘ilishida tasdiqlangan “Navoiy davlat universiteti professor-o‘qituvchilar, talabalar, ilmiy, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga moddiy yordam ko‘rsatish, moddiy rag‘batlantirish hamda ustama tayinlash uchun Maxsus jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”ining ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. 2025-yil 2-maydagi universitet kengashi 10-son yig‘ilishining “2025-yil uchun universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlarini belgilash” to‘g‘risidagi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlar tomonidan bajarilgan ishlarning samaradorligi va sifatiga qarab budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. **Universiteti xodimlariga moddiy yordam ko‘rsatish, moddiy rag‘batlantirish hamda ustama ish haqi tayinlash komissiyasiga:**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi “Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 517-son qarori, Navoiy davlat universiteti Kuzatuvchi kengashining 2025-yil 18-yanvardagi yig‘ilishida tasdiqlangan “Navoiy davlat universiteti professor-o‘qituvchilar, talabalar, ilmiy, o‘quv-yordamchi, texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarga moddiy yordam ko‘rsatish, moddiy rag‘batlantirish hamda ustama tayinlash uchun Maxsus jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” hamda Universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlar tomonidan bajarilgan ishlarning samaradorligi va sifatiga qarab budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlari, shuningdek, boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga qat’iy rioya qilish vazifasi yuklatilsin.

4. 2025-yilda rasmiy sanalarni nishonlash, Qurbon hamda Ramazon hayiti bayramlari munosabati bilan universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlar soha prorektorlari bildirishi, Kasaba uyushmasi qo‘mitasining yig‘ilish qarori asosida universitet rektorining buyrug‘i bilan moddiy rag‘batlantirishlar amalga oshirilsin.

5. Komissiya tomonidan moddiy rag‘batlantirish (mukofotlash) har chorak yakuni bilan kelib tushgan bildirishnomalar va arizalar asosida yig‘ilish tashkil qilinib, ko‘rib chiqilsin. Yig‘ilish bayonnomasi rasmiylashtirilib, asoslovchi hujjatlar ilova qilinsin.

6. Professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish, ya’ni mukofotlashda tartibiga mos holda, asoslovchi hujjatlarga tayanib bildirishnomalar tayyorlash va komissiyaga (bunda komissiyaga yo‘nalish prorektori tomonidan to‘plangan hujjatlar taqdim qilinadi) taqdim qilish fakultet dekanlari, kafedra mudirlari va bo‘lim boshliqlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Moddiy rag‘batlantirish, ya’ni mukofotlashda professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarni faoliyat natijalari va erishgan yutuqlarini belgilangan tartib asosida o‘z yo‘nalishlaridan (o‘quv, ilmiy tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy hamda moliyaviy) kelib chiqib, baholash vazifasi soha prorektorlari zimmasiga yuklatilsin.

8. Universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarga ularning murojaatiga asosan kasaba uyushmasi tashkilotining tashabbusi bilan budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qonunchilikda belgilangan talablar bo‘yicha moddiy yordam to‘lansin.

9. Moddiy rag‘batlantirish, ya’ni mukofotlash, moddiy yordam berish va ish haqlariga ustama tayinlashda, universitetning to‘lov-kontrakt mablag‘lari moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi doirasida amalga oshirilishini ta’minlash va nazorat qilish Bosh auditor X.Tursunov, bosh hisobchi U.Qurbonov hamda reja-moliya bo‘limi boshlig‘i S.Nizomiddinovlar zimmasiga yuklatilsin.

10. Universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlar moddiy rag‘batlantirish va moddiy yordam berish to‘g‘risidagi buyruq loyihasi universitet kasaba uyushmasi bilan kelishilgan holda, Komissiya yig‘ilishining bayonnomalari asosida Inson resurlarini boshqarish (HR) bo‘limi tomonidan buyruq rasmiylashtirilsin hamda bayonnomalarga ilova qilingan asoslovchi hujjatlarni saqlash zimmasiga yuklatilsin.

11. Institutning 2024-yil 22-apreldagi Institutda professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlarini belgilash to‘g‘risidagi 104-AFO-son va Institutning 2024-yil 7-maydagi 2024-yil 22-apreldagi 104-AFO-son buyrug‘iga qisman o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi” 127-AFO-son buyruqlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

12. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish soha prorektorlari zimmasiga yuklatilsin.

Rektor v.v.b **M.Kalonov**

Navoiy davlat universiteti
rektori buyruq loyihasiga ilova

Universitet professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlar tomonidan bajarilgan ishlarning samaradorligi va sifatiga qarab budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlari

№	Mezon bandi	Tartib	Mukofot miqdori
1	O‘quv jarayonini tashkil etishdagi salmoqli yutuqlari, ularni jahon standartlari darajasida doimiy ravishda yangilab borish, fan, texnika, yangi texnologiyalar va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari hamda istiqbollari, ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyotni belgilaydigan sohalarda maxsus kurslar tashkil etish	Ushbu yo‘nalishlarda Maxsus kurslarni tashkil etish to‘g‘risidagi universitet rektorining buyrug‘i hamda oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar asosida	Oylik maoshining 100 % miqdorigacha (yil davomida bir marta)
2	O‘quv va o‘quv-uslubiy ishlarning samaradorligi va sifatini ta’minlovchi yuqori pedagogik mahoratga, talabaning ijodiy hamda idrok qilish qobiliyatini oshirishni ta’minlovchi o‘qitishning ilmiy-metodik darajasiga ega bo‘lish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining (xalqaro miqyosda-100%, respublika miqyosida-75%, universitet miqyosida 50%) miqdorda (yil davomida bir marta)
3	O‘qitishning faol usullaridan foydalanish va bilimlarni nazorat qilish, ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligini ta’minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodning yuksak axloqiy jihatlarini shakllantirish, besh tashabbus yo‘nalishlari bo‘yicha yutuqlarga erishish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 25% dan 50% gacha miqdorida (yil davomida bir marta)
4	Yangi avlod darsliklari va o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va ishlab chiqish	OTFIV ning buyrug‘i bilan tasdiqlangan tegishli hujjatlar taqdim etilganda, ARMga kamida 5 dona taqdim qilganda (1030 ga taqdim qilinmagan bo‘lsa)	Muallif (universitet) hisobidan chop etilganda oylik maoshining 100 % (50%) miqdorida (hammualliflikda bo‘lsa mualliflik ulushi miqdorida)
5	Barcha turdagi ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va o‘tkazishni takomillashtirish, talabalar konstruktorlik to‘garaklarini, yoshlar ijodiy markazlarini hamda talabalarning ilmiy- tadqiqot ishlarini boshqarish, shuningdek talabalar orasidan iqtidorlilarini saralab olish, tanlovlarda, konferensiyalar va simpoziumlarda faol qatnashish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 25% dan 50% gacha miqdorida (yil davomida bir marta)
		Prezident yoki nomdor stipendiatlar tanlovida g‘olib bo‘lgan talabalarga rahbarlik qilganligi uchun (OTFIV buyrug‘i taqdim etilganda, universitet ichki buyrug‘i bilan biriktirilgan rahbarga)	Oylik maoshining 100 % miqdorida
		Startap loyihalar va boshqa Respublika tanlovlarida g‘olib bo‘lgan talabalarga rahbarlik qilganligi uchun (OTFIV buyrug‘i taqdim etilganda)	Oylik maoshining 100 % miqdorida
6	O‘quv jarayonida zamonaviy kompyuter texnikalaridan foydalangan holda o‘qitishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish, talabalarning mustaqil ta’lim olishini shakllantirish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 50% miqdorida (yil davomida bir marta)
7	Tayyorlanayotgan mutaxassislar sifatini oshirish maqsadida oliy ta’limning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish va ularni o‘quv- tarbiyaviy jarayoniga tatbiq etish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 50% miqdorida (yil davomida bir marta)
8	Ilmiy-uslubiy kengashlar va o‘quv-uslubiy birlashmalarda samarali ish olib borish, o‘quv reja va dasturlarini hamda iqtisodiyot tarmoqlarining real ehtiyojlarini hisobga olgan holda mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 25% miqdorida (yili davomida bir marta)
9	Fan va texnika hamda iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shadigan maqolalar, monografiyalar va kitoblarni nashr etish	Monografiya nashrdan chiqargani uchun (Universitet Kengashining qarori bilan tasdiqlangan tegishli hujjatlar taqdim etilganda, ARMga kamida 5 dona taqdim qilganda) (1030 ga taqdim qilinmagan bo‘lsa)	Muallif (universitet) hisobidan chop etilganda oylik maoshining 50 % (25%) miqdorida (hammualliflikda bo‘lsa mualliflik ulushi miqdorida)
		Xalqaro indeksatsiyalangan ilmiy ma’lumotlar bazalaridagi (Scopus, Web of Science, Springer) impakt-faktori 6 va undan yuqori ilmiy-	

		texnik jurnallarda chop ettirgan har bir maqola uchun (maqola chop etilgan jurnalning elektron nusxasi va maqola linki taqdim etilganda)	
		Scopus bazasida H - indeksi 5 va undan yuqori bo‘lganligi uchun	Oylik maoshining 100 % miqdorida
		AKT ga oid dasturlar va elektron bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar uchun (intellektual mulk agentligidan ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnomasi taqdim etilganda)	Oylik maoshining 20 foizi miqdorida (hammualliflikda bo‘lsa mualliflik ulushi miqdorida)
10	O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini ko‘zlab turli xildagi ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 50% dan 100% gacha miqdorida (yil davomida bir marta)
11	Ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlashda, doktorantlar, jumladan xorij davlatlaridagi doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilishda ijobiy natijalarga erishish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 100% miqdorida (yil davomida bir marta)
12	Fan doktori diplomini olgandan so‘ng talabgor (agar oliy ta’lim muassasasida faoliyat yuritayotgan bo‘lsa) va uning ilmiy rahbari	DSc ilmiy darajasini olgani uchun	Oylik maoshining 100 % miqdorida
		PhD ilmiy darajasini olgani uchun	Oylik maoshining 50 % miqdorida
		Top-1000 talik xalqaro reytingga kiruvchi OTMlarida doktorlik yoki unga tenglashtirilgan dissertatsiya himoya qilgani uchun	Oylik maoshining 300 % miqdorida
		Top-1000 talik xalqaro reytingga kiruvchi OTMlarida nomzodlik yoki unga tenglashtirilgan dissertatsiya himoya qilgani uchun	Oylik maoshining 200 % miqdorida
		Professor ilmiy unvonini olganligi uchun	Oylik maoshining 75 % miqdorida
		Dotsent ilmiy unvonini olganligi uchun	Oylik maoshining 50 % miqdorida
13	Hisobot yili davomida amaliyotga tatbiq qilinadigan diplom loyihalariga rahbarlik qilish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 50% miqdorida (o‘quv yili davomida bir marta)
14	Chet tillaridan (ingliz, fransuz, nemis va boshqa) biri yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 100% miqdorida (yil davomida bir marta)
15	Budjetdan tashqari mablag‘larni ko‘paytirishda, shuningdek oliy ta’lim muassasasi moddiy-texnika bazasini homiylik asosida mustahkamlash borasida shaxsiy tashabbus ko‘rsatish	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobotlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 50% miqdorida (yil davomida bir marta)
16	Har bir xodimning ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirishga qo‘shgan shaxsiy hissasi, berilgan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishi hamda jamoat ishlarida faol qatnashishi.	Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha bildirishlar (asoslantiruvchi hujjatlarni ilova qilgan holda) asosida	Oylik maoshining 100% miqdorida (yil davomida bir marta)